

Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi to'g'risida uslubiy NIZOM

Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi to'g'risida uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom deb ataladi) kambag'allikning turfa xil jihatlari, jumladan, asosiy infratuzilma va yashash sharoitlari, salomatlik va ijtimoiy kapital, moliyaviy inklyuzivlik va bandlik hisobga olingan holda ilg'or yondashuv tarkibi va shakllanishidagi alohida manbalarning ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur Nizom uslubiyati Jahon Banki ekspertlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg'armasi (UNICEF), UNICEFning Innochenti tadqiqot byurosi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasining (BMT YEIK), Oksford Universitetining Kambag'allik va inson taraqqiyoti tashabbusi (OPHI) tavsiyalariga asoslangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ko'p o'lchovli kambag'allik faqatgina daromad yoki iste'mol bilan belgilanmaydi, balki ta'lim, salomatlik, toza suv, kanalizatsiya va farovonlikning boshqa jihatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi odamlarning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan o'zaro bog'liq bo'lgan muhtojlik turlarining keng doirasini qamrab oladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar

va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi;

uy xo'jaligi kuzatuv savolnomasi – kuzatuv davomida uy xo'jaligi to'g'risida ma'lumot olish maqsadida aniq shakllantirilgan savollar ro'yxatidan iborat bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjat;

intervyuyer – kuzatuv jarayonida tanlovga tushgan uy xo'jaliklari a'zolari bilan savol-javob (intervyu) o'tkazadigan hududiy statistika boshqarmasi xodimi;

kambag'allik aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmashligi;

ko'p o'lchovli kambag'allik – faqatgina daromad yoki iste'mol bilan belgilanmaydi, balki ta'lim, salomatlik, toza suv, kanalizatsiya va farovonlikning boshqa jihatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi odamlarning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan o'zaro bog'liq bo'lgan muhtojlik turi.

2-bob. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini shakllantirish manbalari

2. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi. Kambag'al odamlar boshdan kechirayotgan umumiy muhtojliklar ulushi bilan qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan ko'rsatkichlar oraliq'i. Mazkur ulush ushbu ikki komponent ko'paytirmasi sifatida hisoblanadi: Tarqalish ko'lami va namoyon bo'lish darajasi [MPI yoki $M_0 = H * A$]. Bu usul nafaqat kim kambag'al ekanligini aniqlaydi, balki ko'p o'lchamli kambag'allik holati ma'lum odamlar uchun qanchalik keskin yoki shiddatli ekanligini hisobga oladi.

3. Tarqalish ko'lami, H. Ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitida deb belgilangan odamlar nisbati; shuningdek, "kambag'allikdagi aholi soni nisbati", deb ham ataladi. Bu – o'rtacha o'lchangan muhtojlik ko'rsatkichi kambag'allik ostonasidan balandroq yoki unga teng bo'lgan odamlarning aholi umumiy sonidagi foizli ulushi. Bunda qiymat 0 dan 100% gacha bo'lib, ba'zan, "kambag'allikdagi aholi soni nisbati" deb ataladi.

4. Cheklov chegarasi (deprivatsiya). Muayyan uy xo'jaligi yoki shaxslarning har bir ko'rsatkichlar kesimida cheklanmagan va muhtoj emas deb hisoblanishi uchun zarur bo'lgan natijalarning minimal darajasiga ega bo'lishi. Masalan, maktab ta'limi bilan bog'liq cheklanganlik va muhtojlik chegarasi olti yildan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, odam kamida olti yillik maktab ta'limiga ega bo'lmasa, u mazkur ko'rsatkich kesimida cheklangan va muhtoj deb hisoblanadi.

5. Vazn koeffitsiyenti. Doirasida ko'rsatkichlarga (va ular bilan bog'liq tarzda o'lchamlarga) beriladigan qiymat. Vazn koeffitsiyenti o'lchamlar,

ko'rsatkichlar va chegaralar kabi doimiy bo'lib qoladi. Vazn koeffitsiyentini belgilash har bir cheklanganlik va muhtojlik turining yakuniy o'lchovidagi nisbiy ahamiyatini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi.

6. Kambag'allik ostonasi, k. Mazkur chegarada kamida k-vazn koeffitsiyentli ko'rsatkichlarda ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagilar aniqlanadi. "K" qiymati muayyan shaxs yoki uy xo'jaligi kambag'al deb e'tirof etilish uchun bir vaqtning o'zida boshdan kechirishi kerak bo'lgan cheklanganlik.

7. Oraliq chegara yondashuvi. Bunda kambag'allikning aniq k ostonasidagi odamlar ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitida deb hisoblanadi. Bunda indeksning vazn koeffitsiyenti tuzilishi aks ettirilishi mumkin. Misol uchun, agar uchta o'lcham bor bo'lsa, 33 va 34 foizlik chegaralarni o'rganish tabiiy bo'lib, bunda kamida bitta yoki bir nechta o'lchamda yoki vazn koeffitsiyentlarining o'lchangan ko'rsatkichlari ekvivalentida muhtoj bo'lishni anglatadi.

3-bob. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi tamoyillari

8. MPI (Multidimensional Poverty Index) – kambag'allikni o'lchashning monetar bo'lmagan vositasi bo'lib, OPHI tomonidan ishlab chiqilgan. Bu vosita ko'p o'lchovli kambag'allikni o'lchash uchun mo'ljallanib, kambag'allik kengligi va chuqurligini, shuningdek, umumiy indeksni qamrab oladi. Tahlil birligi va identifikatsiya birligi shaxs, uy xo'jaligi, mintaqa yoki muassasadan iborat bo'lishi mumkin. Global va ko'plab milliy MPIlarda identifikatsiya birligi sifatida uy xo'jaligidan foydalaniladi, negaki kambag'allikni o'lchash uchun mo'ljallangan ma'lumot manbalarining aksariyatiga barcha shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilmagan.

Indeks Alkayr-Foster uslubi (AFU) yordamida hisoblanadi. Kambag'allikning turli o'lchamlarini bitta indeksga jamlagan holda, AFU orqali tarqalish ko'lam (H), ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlarning foizi va namoyon bo'lish darajasi (A), kambag'al odamlar muhtojlikni boshdan kechirayotgan o'lchamlarning o'rtacha foizi baholanadi.

MPIda siyosatni ishlab chiqish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadigan ma'lumotlar taqdim etiladi: (i) Aholining kichik guruhlari (masalan, qishloq/shahar, mintaqalar, yosh guruhi, etnik kelib chiqishi va boshqalar) kesimida osonlik bilan ajratilgan ma'lumotlar, (ii) Kambag'allik tarkibi haqida ko'rsatkichlar asosida ma'lumot beriladi, (iii) Vaqt o'tishi bilan kambag'allik qisqarishini kuzatish mumkin.

9. Global MPI uchta o'lcham ichidagi 10 ta ko'rsatkichni qamrab oladi: salomatlik, ta'lim va yashash sharoitlari. Mazkur ko'rsatkichlarda to'yib

ovqatlanmaslik, toza suv va kanalizatsiyadan foydalanish imkoniyati yo'qligi, ta'lim darajasining cheklangani hamda asosiy xizmat va resurslardan foydalanish darajasi yetarli emasligi kabi o'ta muhtojlik turlari qamrab olinishini ko'rish mumkin. MPIda o'lcham va ko'rsatkichlarni tanlash uchun qo'llanma sifatida BRM tamoyillaridan foydalaniladi. Taqqoslanadigan o'lchovni yaratish uchun barcha mamlakatlar uchun bir xil o'lcham, ko'rsatkich, cheklanganlik va muhtojlik ostonasi, vazn koeffitsiyentlari va kambag'allik ostonalari qo'llaniladi. Kambag'allik ostonasi ko'rsatkichlar o'rtacha o'lchangan vazn yig'indisining uchdan bir qismi sifatida belgilanadi.

Shunday qilib, Global MPIda o'nta ko'rsatkichning o'rtacha o'lchangan vazni uchdan birida yoki undan ko'prog'ida muhtojlikni boshdan kechirayotgan shaxslar "ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagilar", deb qaraladi.

10. Global MPI doirasidagi mamlakatga bag'ishlangan brifinglarga ko'ra (2023-yil), MPIning O'zbekiston uchun qiymati 0,006 ga teng bo'lib, bunda aholining 1,7 foizi ko'p o'lchamli kambag'allik sharoitida yashaydi va kambag'allikning o'rtacha namoyon bo'lish darajasi - 35,3 foizni tashkil etadi.

Global MPIda ko'p o'lchovli o'ta kambag'allikni o'lchashga urg'u berilishi va uning tuzilishida mamlakatga xos sharoit va xususiyatlar hisobga olinmagani tufayli, muayyan mamlakatlarda uning axborotga to'yinganlik darajasi pastroq. Shu sababli, milliy MPIni (N-MPI) ishlab chiqishda o'lchashdan ko'zlangan maqsadlar va milliy ustuvor yo'nalishlarga asoslanish maqsadga muvofiq. O'lchamlar, ko'rsatkichlar, vazn koeffitsiyentlari va chegaralarini tanlashda har bir mamlakatning o'ziga xos sharoiti hisobga olinishi lozim.

11. Jahon bankining Ko'p o'lchovli kambag'allik o'lchovida (MPM) MPIdan ilhomlanilgan holda, unga asoslaniladi va Alkayr-Foster usulidan foydalaniladi. Ushbu o'lchov 2018-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, MPIdan bir jihati bilan farqlanadi: u o'lchamlardan biri sifatida Yangi xalqaro kambag'allik chizig'ini belgilab bergan 2017-yilgi xarid qobiliyati paritetiga asoslanadigan kuniga 2,15 dollardan past bo'lgan monetar kambag'allikni qamrab oladi. MPM 121 mamlakat uchun ishlab chiqilgan hisob-kitoblarni o'z ichiga olib, farovonlikning 3 o'lchami: monetar, ta'lim va asosiy infratuzilma xizmatlari bo'yicha xaritalangan 6 ta ko'rsatkichdan iborat.

12. Oltita ko'rsatkich ichiga iste'mol, ta'lim darajasi, ta'lim muassasalariga qabul qilish, ichimlik suvi, kanalizatsiya va elektr energiyasi kabilar kiradi. Barcha o'lchamlar va 3 o'lchamdagi har bir ko'rsatkichning vazn koeffitsiyenti teng. Shaxs kamida bitta o'lcham bo'yicha chegara yoki vazn koeffitsiyenti bo'yicha to'liq o'lchamga teng bo'lgan ko'rsatkichlar yig'indisiga to'g'ri kelmasa – ko'p

o'lovli kambag'allik sharoitida yashayotgan, deb hisoblanadi. Birgalikda umumiy vazn koeffitsiyentining 1/3 qismi yoki undan ko'prog'ini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar bo'yicha muhtojlikni boshdan kechirayotgan uy xo'jaliklari kambag'al, deb hisoblanadi. Monetar o'lcham bitta ko'rsatkichga tayanishi sababli, daromad asosida kambag'al bo'lgan har bir odam ko'p o'lovli kambag'allik o'loviga ko'ra avtomatik ravishda kambag'al deb hisoblanadi.

4-bob. Ma'lumotlarni to'plash va hisoblash

13. Nizom GSBPMning yig'ish, tahlil qilish bosqichlari doirasida jamlanma va tanlanmani shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish, dastlabki statistik materiallarini tayyorlash hamda shakllantirishni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

14. So'rovnoma Statistika agentligi, ITIM (Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi) tomonidan BMTTD, UNICEF, UNICEFning Innochenti tadqiqot byurosi, OPHI hamkorlikda ishlab chiqilgan. So'rovnoma beshta qismdan iborat:

1. Yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnoma
2. Uy xo'jaligi so'rovnomasi
3. Ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuv so'rovnomasi
4. Akt vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo'jaligi a'zolarining akt vositalaridan foydalanish ko'lami so'rovnomasi
5. Bolalar uchun mo'ljallangan so'rovnoma

15. Intervyuyerlar tomonidan kuzatuv ma'lumotlarini serverga jo'natishdan oldin, ularning to'liqligi va haqqoniyligi tekshirib chiqiladi. Aniqlangan xato va kamchiliklar joyida to'g'irlangandan so'ng serverga yuboriladi.

16. Tanlanma kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,2 %) tashkil etadi.

Bosh to'plam, O'zbekiston Respublikasida mavjud uy xo'jaliklarining umumiy sonidan iborat. Bosh to'plamga jamoaviy uy xo'jaliklari, ya'ni uzoq muddatdan beri shifoxonada, qariyalar uchun internat-uylarda, maktab-internatlar va boshqa institutsional muassasalarda bo'lgan shaxslar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotganlar, yotoqxonalarda yashovchi talabalar va shunga o'xshashlar qo'shilmaydi.

17. Uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda, har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq uchun tanlovning birlamchi birliklari (TBB) soni aniqlanadi. Tanlovning birlamchi birligi sifatida shahar va qishloq qatlamlarida mahallalaridan foydalaniladi.

18. Kuzatuvlarda tanlovning birlamchi birliklaridan yarim yil davomida foydalaniladi, shundan so'ng yangilari bilan to'liq almashtiriladi (100% li yarim yillik rotatsiya). Shu tarzda, bir yil davomida ikki marta TBB tanlovi amalga oshiriladi. Tanlanadigan TBB soni har yarim yil uchun 309 tani, bir yilda 618 ta TBBni tashkil etadi. Har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) uchun shu kabi raqamlar mos ravishda o'rtacha 18 tadan 28 tagacha va yiliga 36 tadan 56 tagacha TBBni tashkil etadi.

TBB ro'yxatini shakllantirishda borish qiyin bo'lgan va borib bo'lmaydigan TBB ro'yxatga kiritilmaydi.

19. Har bir tanlab olinayotgan TBBning o'lchami rad javoblari va boshqa natijasiz qatnovlarni, shuningdek, undagi uy xo'jaliklarining ro'yxati yetarli darajada sifatli bo'lmaganligini hisobga olgan holda, kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaliklari sonidan kam bo'lmasligi kerak.

Agar, birlamchi ro'yxatdagi biror-bir mahallaning o'lchami belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, u ushbu shahar/shaharcha yoki qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi boshqa mahalla bilan birlashtirilishi kerak. Agar, birlashtirilgandan so'ng ham mahallalarning yig'ma miqdori avvalgidek belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, ularga yana bir mahalla qo'shiladi va h.k.

Shu tarzda, har biri, bir va undan ortiq mahallalardan tashkil topgan TBBning yakuniy ro'yxati shakllantiriladi. Tarkibli TBBning uy xo'jaliklari ro'yxati unga kiritilgan mahallalarning barcha uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi, TBB nomi esa, ularning nomlaridan iborat bo'ladi.

20. Ikkinchi bosqichda, TBB tanlovi o'tgandan keyin, joylarda kuzatuv ishlarini o'tkazishdan avval, barcha tanlab olingan mahallalar va qishloqlarda yashovchi uy xo'jaliklarining ro'yxati tuziladi va ulardan shahar va qishloq qatlamlari asosida hududlar bo'yicha oddiy tasodifiy tanlov amalga oshiriladi.

21. Hududlar bo'yicha uy xo'jaliklarini stratifikatsiyalashda (qatlamlarga ajratishda) har bir hudud bo'yicha tanlovning talab etiladigan eng oz o'lchovini va hududlar darajasida natijalarning talab etiladigan aniqlik darajasini ta'minlovchi nomutanosib usuldan (uy xo'jaliklari sonining kvadrat ildizi asosida) foydalaniladi, hisob-kitoblar quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$S_i = S \times (\sqrt{Q_i} / \sum_{j=1}^n \sqrt{Q_j}) \quad (1)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

S – tanlovning umumiy o'lchami;

Q_i – qatlamdagi uy xo'jaliklarining soni;

Q_j – barcha qatlamlar bo'yicha uy xo'jaliklarining umumiy soni.

22. Shahar va qishloq bo'yicha stratifikatsiyalash mos ravishda uy xo'jaliklari soniga asoslangan. Bunda, quyidagi formula yordamida aniqlanadigan mutanosib usuldan foydalaniladi:

shahar uy xo'jaliklari (S_{is}) uchun:

$$S_{is} = S_i \times (Q_{is} / Q_i) \quad (2)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

Q_{is} – i - hududning shahar joylaridagi uy xo'jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo'jaliklarining soni.

qishloq uy xo'jaliklari (S_{iu}) uchun:

$$S_{iu} = S_i \times (Q_{iu} / Q_i) \quad (3)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

Q_{iu} – i - hududning qishloq joylaridagi uy xo'jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo'jaliklarining soni.

23. Hududlar va shahar/qishloq bo'yicha stratifikatsiyalash amalga oshirilgandan so'ng, yillik tanlovning kuzatuv 12 oyiga bo'linishi zarurati bo'lganligi sababli, tanlovni qatlamlar bo'yicha hisoblangan joylashtirishdan biroz farq qilgan holda o'zgartiriladi.

Masalan: Agar, TBBda bir oyda 3 ta uy xo'jaligi kuzatilsa, u holda bu TBBda yarim yil uchun $3 \times 6 \text{ oy} = 18$ tadan kam bo'lmagan uy xo'jaligi bo'lishi kerak.

Har ikkinchi uy xo'jaligi tomonidan "rad javobi" yoki "uyda hech kim yo'q" javoblari kutilishi mumkinligini hisobga olgan holda, uy xo'jaliklari soni kamida $18 / 0,5 = 36$ taga ko'tariladi.

Uy xo'jaliklari ro'yxatlarining sifati yomonligi, ya'ni har o'ninchi manzil noaniq yoki noturar-joy sektoriga to'g'ri kelishi va h.k. holatlarni hisobga olib, TBBning eng oz o'lchami $36 / 0,9 = 40$ tagacha uy xo'jaligiga ko'paytiriladi.

24. Tanlangan uy xo'jaliklari ro'yxati, ro'yxat boshidan boshlab qismlab foydalaniladi. Kuzatuvning birinchi oyi uchun ushbu ro'yxatdagi uy xo'jaliklarining birinchi qismi, ikkinchi oy uchun – birinchi oyda foydalanilgan uy xo'jaliklarining oxirgisidan keyingi turuvchi birinchi uy xo'jaligidan boshlangan ro'yxatning ikkinchi qismi belgilanadi va h.k.

25. Joriy oy davomida kuzatuv o'tkazilishi mo'ljallangan uy xo'jaliklari ro'yxati joylarda kuzatuv ishlarini boshlashdan oldin intervyuerlarga beriladi. Ro'yxatlar bilan ishlash, qat'iy ravishda tanlovning teng ehtimollik tamoyillarini buzmaganda, rad javobi bergan uy xo'jaliklarini boshqalari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi va tanlovning belgilangan o'lchamiga erishishni ta'minlovchi ketma-ketlik asosidagi qo'shimcha tanlov o'tkazish usuli qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

26. Har bir intervyuyer tasdiqlangan ish grafigi asosida uy xo'jaligiga kuzatuv uchun borganda, uy xo'jaligi a'zosi roziligini olgan holda kuzatuv jarayonini rasmga olib Statistika agentligiga taqdim etadi. Kuzatuvga tushgan mahallada kuzatilgan uy xo'jaliklari joylashuvi earth.google.com sayti orqali tekshiriladi.

27. KoboToolboxga yuklangan so'rovnomada ma'lumotlar so'nggi tug'ilgan kunni tanlash usuli yordamida to'planadi. Agar respondentlar intervyuda ishtirok etishdan bosh tortsa, intervyu oluvchilar Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan uy xo'jaliklarining zaxira ro'yxatidan foydalanadi. Suhbatni o'tkazish vaqti kechikib ketgan taqdirda, suhbatdoshlar so'rovnomani to'liq emas deb hisoblash va zaxira ro'yxatidagi uy xo'jaliklari bilan almashtirishdan avval uni to'ldirish uchun uy xo'jaligiga kamida to'rt marta tashrif buyurgan.

28. O'rtacha bitta uy xo'jaligi kuzatuv davomiyligi (vaqti) kamida 2 soat davom etadi. Agar intervyuyer tomonidan uy xo'jaligi 30-40 daqiqa yoki 6 soatdan ko'p kuzatilsa, ushbu uy xo'jaligiga alohida e'tibor qaratiladi.

29. Kuzatilgan uy xo'jaliklarining 15% iga qayta tashrif buyurish orqali ma'lumotlar sifati va haqqoniyligi tekshiriladi. 20 dan ortiq aniqlashtiruvchi savollar beriladi va intervyuyer tomonidan kuzatilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'riladi.

30. Yakunida ko'p o'lchovli kambag'allik ko'rsatkichlari asosida aholi turmush darajasini aks ettiruvchi jadvallar shakllantiriladi va tahlil qilinadi.

31. N-MPI kambag'allik kengligi va chuqurligini tahlil qilish uchun ko'p o'lchovli kambag'allikni o'lchashning Alkayr-Foster usulidan (AFU) foydalaniladi. Metodologiya viloyatlar, aholi punktining turi va genderlar

o'rtasidagi farqlarni namoyish etish uchun ajratilgan ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. AFU ikki bosqichni o'z ichiga oladi: aniqlash va umumlashtirish.

Aniqlash. Bu jarayon kambag'allikni baholash uchun qo'llaniladigan o'lcham va ko'rsatkichlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Har bir ko'rsatkichga cheklanganlik va muhtojlik ostonasi biriktirilib, bu orqali uy xo'jaligi yoki jismoniy shaxs muhtojlik sharoitida ekani yoki yo'qligi aniqlanadi. Ushbu chegaralarni qo'llash orqali jismoniy shaxs yoki uy xo'jaliklarini ikki toifaga ajratish mumkin: muhtojlik sharoitida bo'lgan yoki bo'lmagan. Ko'rsatkichlar ikkilik o'zgaruvchilar bo'yicha tasniflanib, bunda "1" muhtojlik mavjudligini anglatrsa, "0" muhtojlik yo'qligini bildiradi.

Umumlashtirish. Ushbu bosqichda shaxs yoki uy xo'jaligi tanlangan vaznli ko'rsatkichlar to'plami orasida duch keladigan muhtojliklar ulushi hisoblanadi. Shaxs inobatga olingan umumiy ko'rsatkichlarning ma'lum qismida muhtojliklarni boshdan kechirsa, "ko'p o'lchovli kambag'allik" sharoitida yashayotgan deb tasniflanadi. Bu, avvalo, har bir shaxs boshdan kechirgan mahrumlik miqdori yig'ilib, vaznli mahrumlik reytingini ishlab chiqaradi, so'ngra "qashshoqlik chegarasi" qo'llaniladi. Kambag'allik chegarasi — odamni ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi, deb tasniflaydigan o'rtacha o'lchangan muhtojliklar foiziga nisbatan qo'llanadigan baholovchi xulosa. Mazkur o'lchamlararo chegaraning haqiqiyliigi va ishonchliligini tasdiqlash uchun o'zgarishlarga chidamlilik tekshiruvi o'tkaziladi.

AFU usulidan so'ng MPI qiymati ikkita ko'rsatkich ko'paytirmasidan iborat bo'ladi: ko'p o'lchovli kambag'allikning tarqalish ko'lam (kambag'allikdagi aholi soni nisbati, H) va kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi (chuqurlik yoki o'rtacha namoyon bo'lish darajasi, A). MPI qiymatlari 0 dan 1 gacha bo'lib, bunda 0 hech kim hech qanday ko'rsatkichlarda muhtojlikni boshdan kechirmayotganini ko'rsatadi, 1 esa hamma barcha ko'rsatkichlarda muhtojliklarni boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Ko'p o'lchovli kambag'allikdagi kambag'al aholi soni nisbati aholi tarkibidagi ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitida yashayotgan odamlar ulushini anglatib, kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi esa ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlar boshdan kechirayotgan muhtojliklar o'lchangan ko'rsatkichlar to'plamining o'rtacha ulushini aks ettiradi.

32. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini hisoblash 10ta bosqichdan iborat:

1- bosqich. Identifikatsiya birligini tanlang. Masalan, uy xo'jaligi yoki jismoniy shaxs.

2- bosqich. Ko'rsatkichlar to'plamini aniqlang. Masalan, o'qish yillari, uy-joy, munosib mehnat sharoitlari, sog'liq holati.

3- bosqich. Deprivatsiya chegarasini belgilang. Masalan, agar u har bir yosh guruhi uchun milliy darajada belgilangan majburiy ta'limning to'liq kursini tugatmagan bo'lsa, shaxs mahrumlikni boshdan kechiradi.

4- bosqich. Deprivatsiya chegarasini qo'llang. Har bir inson/uy xo'jaligi har bir ko'rsatkich bo'yicha deprivatsiyani boshdan kechirayotganligini aniqlang.

5- bosqich. Har bir ko'rsatkich uchun nisbiy vaznni tanlang. Har bir indikator nisbiy vaznga ega bo'ladi va bu og'irliklar odatda bittaga (100%) qo'shiladi.

6- bosqich. Og'irlangan deprivatsiya ballini hisoblang (0% dan 100% gacha). Odamlar mahrum bo'lgan barcha ko'rsatkichlarning og'irligini qo'shing.

7- bosqich. Chegara qiymatini aniqlang ($x\%$). Agar insonning mahrumlik darajasi $>x\%$ bo'lsa, u ko'p o'lchovli qashshoqlikda yashaydi deb hisoblanadi.

8- bosqich. Raqamli nisbatni hisoblang. Bu qashshoqlikda yashayotgan aholi ulushi. Kambag'allikdagi aholi soni nisbati (H) yoki ko'p o'lchovli kambag'allik tarqalish ko'lami — bu ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlarning (q) aholi (n) tarkibidagi ulushi:

$$H = \frac{q}{n} \quad (4)$$

Bunda:

q — ko'p o'lchovli kambag'al deb belgilangan kishilar soni;

n — kishilarning umumiy soni.

9- bosqich. Kambag'al aholining qashshoqlik intensivligini hisoblang. Kambag'allikda yashovchi barcha odamlarning ko'rsatkichlarini qo'shing va ularni kambag'allikda yashovchi odamlarning umumiy soniga bo'ling.

Kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi (A) ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlar kambag'allikni boshdan kechirayotgan ko'rsatkichlar to'plamining o'rtacha o'lchangan ulushini aks ettiradi. Faqatgina ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlar uchun (kambag'allik balli 33,3 foizdan yuqori yoki unga teng bo'lganlar) kambag'allik ballari yig'ilib, ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi aholining umumiy soniga bo'linadi.

10- bosqich. MPI ni hisoblang. Bu ulush ko'rsatkichi (8- bosqich) va kambag'allik intensivligi (9- bosqich) mahsulotidir.

MPI qiymati ikki ko'rsatkichning mahsuli hisoblanadi: ko'p o'lchovli kambag'allik tarqalish ko'lami va kambag'allik namoyon bo'lish darajasi:

$$MPI = H * A$$

(5)

Bunda:

H – kambag'allikdagi aholi soni nisbati;

A – kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi.

33. Masala:

Aytaylik, jamiyat uch kishidan iborat: Anora, Diyora va Vali. Biz yaratmoqchi bo'lgan MPI uchta mezon bo'yicha guruhlangan quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

kambag'allik belgisi	ko'rsatkichlar	deprivatsiyani boshdan kechirish	og'irligi
Π1	a	...	1/6
	b	...	1/6
Π2	c	...	1/6
	d	...	1/6
Π3	e	...	1/18
	f	...	1/18
	g	...	1/18
	h	...	1/18
	i	...	1/18
	j	...	1/18

Ushbu uch kishi uchun ma'lumotlar yig'iladi va quyidagi jadvalda ko'rsatilganidek, mahrumlik matritsasi tuziladi (ko'rsatkich og'irliklari qavs ichida ko'rsatilgan). Jadvaldagi 1 qiymati ushbu komponentda mahrumlikni anglatadi.

	ko'rsatkichlar										Deprivation ball
	a 1/6	b 1/6	c 1/6	d 1/6	e 1/18	f 1/18	g 1/18	h 1/18	i 1/18	j 1/18	
Anora	1	1	0	0	1	0	0	1	0	0	4/9 = 0,44
Diyora	0	0	1	0	1	0	1	1	0	0	1/3 = 0,33
Vali	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0	1/6 = 0,17

Agar kambag'allik chegarasi, masalan, 33% bo'lsa, Anora va Diyora ko'p o'lchovli qashshoqlikda yashaydilar, chunki ularning mahrumlik ko'rsatkichlari 33% ga teng yoki undan yuqori, Valining ko'rsatkichi esa pastroq.

Namunada teng og'irliklar qo'llanilsa (namunaviy ma'lumotlar bilan bu har doim ham shunday emas), biz quyidagi qiymatlarni olamiz:

Raqamli nisbat (H) $2/3 = 0,66$. Bu shuni anglatadiki, MPI nuqtai nazaridan aholining 66%i qashshoqlikda yashaydi.

Kambag'allar orasidagi kambag'allikning intensivligi (A) kambag'allar boshdan kechirgan mahrumlikning o'rtacha darajasi yoki $(0,33 + 0,44)/2 = 0,39$ sifatida hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, kambag'allikda yashovchi odamlar 39% chora-tadbirlardan mahrum bo'lishadi.

Tuzatilgan ulush ko'rsatkichi M_0 (yoki MPI) sifatida hisoblanadi

$$H * A = 0,66 * 0,39 = 0,250.$$

5-bob. Yakuniy qoidalar

34. Mazkur Nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Statistika agentligi (2023). Minimal iste'mol xarajatlari to'g'risida. Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/press-center/news-of-committee/41601>.
2. Norma.uz (2019). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-fevraldagi 170-son qarori. <https://nrm.uz/contentf?doc=630741_положение_о_порядке_учета_граждан_нуждающихся_в_улучшении_жилищных_условий_распределения_и_предоставления_жилых_помещений_от_26_02_2019_г_170> &products=1_все_законодательство_Узбекистана.
3. Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023. Poverty and deprivation analysis using the Multidimensional Poverty Index (MPI). CERR and UNDP Country Office in Uzbekistan.
4. Alkayre, S., Kanagaratnam, U., and Suppa, N. (2023a). 'The global Multidimensional Poverty Index (MPI) 2023 country results and methodological note', OPHI MPI Methodological Note 55, Oxford Poverty and Human Development Initiative (OPHI), University of Oxford.
5. Alkayre, S., Kanagaratnam, U. and Suppa, N. (2018). 'The Global Multidimensional Poverty Index (MPI): 2018 revision', OPHI MPI Methodological Note 46, Oxford Poverty and Human Development Initiative, University of Oxford.
6. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (2023). Kambag'allik darajasi. https://mehnat.uz/uploads/news_content/files/2023/07/26/4EBfF5TIH40.pdf.
7. United Nations Development Programme and Oxford Poverty and Human Development Initiative (2019). How to build a National Multidimensional Poverty Index. doi: <https://www.undp.org/publications/how-build-national-multidimensional-poverty-index>.
8. United Nations (2023). Poverty Eradication. doi: <https://sdgs.un.org/topics/poverty-eradication>.
9. United Nations Development Programme and Oxford Poverty and Human Development Initiative (2021). Technical note. Multidimensional Poverty Index. doi: <https://hdr.undp.org/system/files/documents/mpi2021technicalnotespdf.pdf>.
10. World Bank (2023). Multidimensional Poverty Measure. doi: <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/brief/multidimensional-poverty-measure>.

“Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI)
to‘g‘risida uslubiy nizom”ga
1-ilova

**N-MPI — o‘lchamlar, ko‘rsatkichlar, cheklanganlik va muhtojlik ostonalari
va vazn koeffitsiyentlari**

O‘lcham	Ko‘rsatkich	Cheklanganlik va muhtojlik ostonasi	Vazn koeffitsiyenti
Asosiy infratuzilma va yashash sharoitlari (1/3)	Haddan tashqari zichlikda yashash	Milliy standartlarga ko‘ra, katta yoshdagi odam kishi boshiga 16 kvadrat metrdan kam bo‘lgan yashash maydoni to‘g‘ri keladigan uy xo‘jaligida yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
	Uy-joy	Katta yoshdagi odam ikki komponentdan biri, ya‘ni pol va devorlar nomaqbul ahvolda bo‘lgan uy xo‘jaligida yashasa muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
	Isitish yoqilg‘isi	Katta yoshdagi odam xonani isitish zarur bo‘lganda xavfli yoki nosog‘lom yoqilg‘i ishlatiladigan uyda yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
	Kanalizatsiya	Katta yoshdagi odam sanitariya-gigiyena inshooti chiqindilari chuqurga to‘kiladigan yoki hech qachon bo‘shatilmagan sanitariya-gigiyena inshooti bo‘lgan xonadonda yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
	Ichimlik suvi	Katta yoshdagi odam quvurli ichimlik suvi manbaiga ega bo‘lmagan xonadonda yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
	Uy jihozlariga ega qilish	Katta yoshdagi odam, quyidagi to‘rtta jihozning hech biri yo‘q bo‘lgan (gaz plitasi/pechka, muzlatgich, televizor va kir yuvish mashinasi) yoki avtomobil bo‘lmagan uy xo‘jaligida yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18
Salomatlik va ijtimoiy kapital (1/3)	Dori vositalarining arzonligi	Katta yoshdagi odam oxirgi 3 oy ichida kasal bo‘lib, pul yoki boshqa resurslar yetishmasligi tufayli kerakli dori-darmonlarni xarid qila olmagan bo‘lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/12
	Oziq-ovqat xavfsizligi	Katta yoshdagi odam Oziq-ovqat xavfsizligi yetishmasligi tajriba shkalasi (FIES) standartlariga ko‘ra so‘nggi 12 oy ichida oziq-ovqat xavfsizligi yetishmasligining har qanday shaklini boshdan kechirgan uy xo‘jaligida yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/12
	Ta‘lim darajasi	Katta yoshdagi odam tugallagan ta‘lim darajasi boshlang‘ich yoki o‘rta bo‘lsa yoki u kasb-hunar yoki oliy (bakalavr) ta‘lim	1/12

O'lcham	Ko'rsatkich	Cheklanganlik va muhtojlik ostonasi	Vazn koeffitsiyenti
		muassasasiga o'qishga kirgan bo'lsa-yu, lekin joriy yoki o'tgan yilda darslarga bormagan bo'lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	
	Aloqa va texnologiyalar	Katta yoshdagi odam Internet, mobil telefon yoki kompyuter/noutbuk/planshetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/12
Bandlik va moliyaviy inklyuzivlik (1/3)	Ishsizlik	Katta yoshdagi odam mehnat yoshiga yetgan, ammo hozirgi paytda ishsiz, mehnatga layoqatli va ishlash uchun xohishi bo'lib turib, faol ish izlayotgan bo'lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/6
	Norasmiy bandlik	Katta yoshdagi odam norasmiy sektorda ishlayotgan bo'lsa; yoki rasmiy sektorda ishlasa-yu, uning ish beruvchisi yuridik shaxs bo'lmasdan, Davlat xizmatlari markazida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/9
	Bank hisob-raqami	Katta yoshdagi odam bankda o'z hisob-raqamiga ega bo'lmasa (shu jumladan plastik karta), u muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.	1/18

Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi ko‘rsatkichini shakllantirish va sifatini nazorat qilish SXEMASI

Bosqichlar	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Bajarishga mas‘ullar
1-bosqich	Planshet dasturiga mantiqiy va arifmetik nazorat o‘rnatish	Hozirgi kunda 5 ta kuzatuv so‘rovnomada bo‘yicha jami 353 ta mantiqiy va arifmetik nazorat o‘rnatilgan. Ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni asosiy jihatlari aniqlandi va anketalarga 48 savol qo‘shimcha kiritildi. Bular ta‘lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, daromad va boshqa resurslardan foydalanish kabi omillardir. <i>Masalan, so‘rovnomadagi barcha savollar <u>to‘liq berilishini nazorat qiladi</u> va qaysidir savol berilmay qolsa keyingi savolga o‘tmaydi.</i>	Kuzatuv o‘tkazilgunga qadar	Axborot xavfsizlik boshqarmasi, Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
2-bosqich	Kuzatuv jarayonida aniqlangan kamchiliklar to‘g‘irlash	Intervyuyerlar tomonidan kuzatuv ma‘lumotlarini serverga jo‘natishdan oldin, ularning to‘liqligi va haqqoniyligi tekshirib chiqiladi. Aniqlangan xato va kamchiliklar joyida to‘g‘irlangandan so‘ng serverga yuboriladi.	Tasdiqlangan ish grafigi asosida kuzatatilgan kunda	Hududiy turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘limi
3-bosqich	Kuzatuv o‘tkazish jarayoni foto hisoboti	Har bir intervyyuyer tasdiqlangan ish grafigi asosida uy xo‘jaligiga kuzatuv uchun borganda, uy xo‘jaligi a‘zosi roziligini olgan holda kuzatuv jarayonini rasmga olib telegram orqali Agentlikka taqdim etadi.	Tasdiqlangan ish grafigi asosida kuzatatilgan kunda	Hududiy turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘limi

Bosqichlar	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Bajarishga mas'ullar
4-bosqich	Kuzatilgan uy xo'jaliklarini GPS tizimi orqali nazorat qilish	Kuzatuvga tushgan mahallada kuzatilgan uy xo'jaliklari joylashuvi earth.google.com sayti orqali tekshiriladi. <i>Masalan, bir mahalladagi uy xo'jaliklar masofasi 3-4 kmdan ortiq bo'lsa yoki kuzatilgan uy xo'jaliklar bitta joyda joylashgan bo'lsa bunga aniqlik kiritiladi</i>	Kuzatuv o'tkazilgan kundan so'ng	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
5-bosqich	Kuzatuv davomiyligi yordamida tekshirish	O'rtacha bitta uy xo'jaligi kuzatuv davomiyligi (vaqti) kamida 2 soat davom etadi. Agar intervyuyer tomonidan uy xo'jaligi 30-40 daqiqa yoki 6 soatdan ko'p kuzatilsa, ushbu uy xo'jaligiga alohida e'tibor qaratiladi.	Kuzatuv o'tkazilgan kundan so'ng	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
6-bosqich	Kuzatilgan uy xo'jaliklarining 15 %ni qayta kuzatish	Kuzatilgan uy xo'jaliklarining 15% iga qayta tashrif buyurish orqali ma'lumotlar sifati va haqqoniyligi tekshiriladi. 20 dan ortiq aniqlashtiruvchi savollar beriladi va intervyuyer tomonidan kuzatilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'riladi.	Kuzatuv o'tkazilgan oydan so'ng	Hududiy turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limi
7-bosqich	Tahliliy ma'lumotlar shakllantirish	Ko'p o'lchovli kambag'allik ko'rsatkichlari asosida aholi turmush darajasini aks ettiruvchi jadvallar shakllantiriladi va tahlil qilinadi.	Kuzatuv o'tkazilgan oydan so'ng	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi